

Endi Uzbekistan Airways Express aviaqatnovlarida issiq ovqatga oldindan buyurtma berish mumkin

2025 13 Iyun

Bugundan boshlab Uzbekistan Airways Express qatnovlarida parvozni yanada yoqimli qilish uchun mazali issiq ovqatga oldindan buyurtma berishingiz mumkin!

- Tanlash uchun ikki xil variant bor:
- Bort issiq ovqatining to'liq standart to'plami – mol go'shtidan garnirli issiq taom, sabzavotli salat/sabzavotli gazak, non va shirinlik: to'lov kunidagi kurs bo'yicha 10 yevro
- Faqat mol go'shtidan asosiy issiq taom garniri bilan: to'lov kunidagi kurs bo'yicha 5 yevro
- Ovqat keytering xizmati tomonidan parvoz paytida amalda bo'lgan standart menyu bo'yicha yetkazib beriladi va taomlar to'plamidan tanlash imkoniyatini o'z ichiga olmaydi.
- Xizmat "Uzbekistan Airways Express"ning 2,5 soatdan ortiq davom etadigan qatnovlarida ko'rsatiladi.
- Buyurtma berish va xizmat uchun to'lov aviachiptani rasmiylashtirish paytida yoki undan keyin amalga oshiriladi va jadvalda ko'rsatilgan parvoz vaqtidan 45 kun oldin boshlanadi hamda parvoz boshlanishidan 24 soat oldin to'xtatiladi.
- Xizmatni bron qilish, rasmiylashtirish va to'lov faqat yo'lovchi ko'rsatgan yo'nalish qismlari uchun amalga oshiriladi.
- Yo'lovchi aviachiptani ixtiyoriy ravishda qaytargan taqdirda, xizmat uchun to'langan mablag'lar jadval bo'yicha parvozdan kamida 24 soat oldin qaytarilishi mumkin.
- Aviachipta majburiy qaytarilganida xizmat uchun to'langan summa to'liq qaytariladi.

Xizmatdan aviakompaniya veb-saytida, mobil ilovasida, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlari orqali foydalanish mumkin. Uzbekistan Airways Express bilan parvozingiz vaqtida sizga yoqimli ishtaha tilaymiz!